

ISSN: 2181-9416



ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416

DOI JOURNAL: 10.26739/ 2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ
2 СОН, 4 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 2, ВЫПУСК 4

LAWYER HERALD
VOLUME 4, ISSUE 2



Тошкент–2025

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ
ҳуқуқий, ижтимоий, илмий-амалий журнали
№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2>

Бош муҳаррир:
КАНЪЯЗОВ ЕСЕМУРАТ СУЛТАМУРАТОВИЧ

Ўзбекистон Республикаси
Адлия вазирлиги ҳузуридаги
Юридик кадрларни қайта тайёрлаш ва
малакасини ошириш институти директори,
юридик фанлари номзоди

Бош муҳаррир ўринбосари:
ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ

Юридик фанлари доктори, профессор

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ

Адлия вазирлиги ҳузуридаги Юридик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институт профессори, юридик фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист

САИДОВА ЛОЛА АБДУВАХИДОВНА
Юридик фанлари доктори, профессор

ТОШЕВ БОБОКУЛ НОРКОБИЛОВИЧ
Юридик фанлари доктори, профессор

МАМАСИДДИҚОВ МУЗАФФАРЖОН МУСАЖОНОВИЧ
юридик фанлари доктори, профессор

ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ
Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Давлат ва ҳуқуқ институти тарихий-назарий, давлат-ҳуқуқий ва конституциявий ҳуқуқий фанлар бўлими бошлиғи, юридик фанлар доктори, профессор

ОТАХОНОВ ФОЗИЛЖОН ХАЙДАРОВИЧ

Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби профессори, юридик фанлари доктори

БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА
Қозоғистон Республикаси Олий Суди Академияси ректори, юридик фанлари номзоди

ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА
Белорус давлат университети судьялар, ҳамда суд, прокуратура ва адлия муассасалари ходимларини қайта тайёрлаш ва уларни малакасини ошириш институти директори

Масъул котиб:
РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ
Адлия вазирлиги ҳузуридаги Юридик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти доценти, юридик фанлари номзоди

Саҳифаловчи: Сапаев Умид Садуллаевич

Таҳририят билан боғланиш:
100001, Тошкент шаҳри, Катта Дархон кўчаси 6 уй.
WEB: yuristjournal.uz
E-mail: info@yuristjournal.uz
yuristjournal@gmail.com
Телефон: (+99871) 2345345

Общественно-правовой и научно-практический журнал
ВЕСТНИК ЮРИСТА
№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2>

Главный редактор:
КАНЬЯЗОВ ЕСЕМУРАТ СУЛТАМУРАТОВИЧ

Директор института переподготовки и
повышения квалификации юридических
кадров при Министерстве юстиции
Республики Узбекистан, кандидат
юридических наук

Заместитель главного редактора:
ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ

Доктор юридических наук,
профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

ОКЮЛОВ ОМОНБОЙ

Профессор Института переподготовки и
повышения квалификации юридических
кадров, доктор юридических наук, профессор,
Заслуженный юрист Республики Узбекистан

САИДОВА ЛОЛА АБДУВАХИДОВНА

Доктор юридических наук, профессор

ТОШЕВ БОБОКУЛ НОРКОБИЛОВИЧ

Доктор юридических наук, профессор

**МАМАСИДДИКОВ МУЗАФФАРЖОН
МУСАЖОНОВИЧ**

Доктор юридических наук, профессор

ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ

Заведующий отдела историко теоретических,
государственно-правовых и конституционно
правовых наук Института государства и права
Академии Наук Республики Узбекистан, доктор
юридических наук, профессор

ОТАХОНОВ ФОЗИЛЖОН ХАЙДАРОВИЧ

Профессор Высшей школы судей при Высшем
судейском совете Республики Узбекистан,
доктор юридических наук

БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА

Ректор Академии правосудия при Верховном Суде
Республики Казахстан, кандидат юридических
наук

ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА

Директор Института переподготовки и
повышения квалификации судей, работников
прокуратуры, судов и учреждений юстиции
Белорусского государственного университета

Масъул котиб:

РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ

Доцент Института переподготовки и
повышения квалификации юридических кадров,
кандидат юридических наук

Верстка: Сапаев Умид Садуллаевич

Контакт редакции журнала:

100001, город Ташкент, улица Катта Дархон 6.

WEB: yuristjournal.uz

E-mail: info@yuristjournal.uz

yuristjournal@gmail.com

Телефон: (+99871) 2345345

**Public, legal and scientific-practical journal of
LAWYER HERALD**
№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2>

Chief Editor:
KANYAZOV Yesemurat

Director of the Institute for Retraining and
Advanced Training of Lawyers under the Ministry
of Justice the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Philosophy in Law (PhD)

Deputy Chief Editor:
ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН

Doctor of Law Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD:

OQYULOV OMONBOY

Professor of the Institute for Retraining and
Advanced Training of Lawyers, Doctor of Law
Sciences, Professor, Honored Lawyer of the
Republic of Uzbekistan

SAIDOVA LOLA

Doctor of Law Sciences, Professor

TOSHEV BOBOKUL

Doctor of Law Sciences, Professor

MAMASIDDIKOV MUZAFFARJON

Doctor of Law Sciences, Professor

TASHKULOV DJURABAY

Head of the department of Historical-Theoretical,
State-Legal and Constitutional-Legal Sciences of the
Institute of State and Law of the Academy of Sciences
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

ОТАХОНОВ ФОЗИЛЖОН

Professor of the Higher School of Judges at the
Supreme Judicial Council Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law

BAYMOLDINA ZAURESH

Rector of the Academy of Justice at the Supreme Court
of the Republic of Kazakhstan, Candidate of Legal
Sciences

ZDROK OKSANA

Director of the Institute for Retraining and
Qualification Upgrading of Judges, Prosecutors and
Legal professionals at the Belarusian State University

Executive Editor:

РАКХМАНОВ ШУКХРАТ

Acting professor of the Institute for Retraining and
Advanced Training of Lawyers Doctor of Philosophy
(PhD) in Law

Pagemaker: Sapayev Umid Sadullayevich

Contact Editorial Staff

100001, Katta Darhon str. 6, Tashkent, Uzbekistan

WEB: yuristjournal.uz

E-mail: info@yuristjournal.uz

yuristjournal@gmail.com

Telephone: (+99871) 2345345

МУНДАРИЖА

КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚ. МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ. МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ

МАХМУДОВ Фируз Бахтиёр ўғли

МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ҚАРАТИЛГАН

ОДОБ-АХЛОҚ ВА ЭТИКА СТАНДАРТЛАРИ: БУЮК БРИТАНИЯ ТАЖРИБАСИ 8

САФАЕВ Жавохир Оманбаевич

КОНТРОЛЬ В ДЕЙСТВИИ: ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА КОМИТЕТСКИХ

СЛУШАНИЙ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ 16

ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ

XURSANOV Rustam Xolmuratovich

INCOTERMS QOIDALARINING XALQARO XUSUSIY HUQUQDAGI HUQUQIY

АНАМИЯТИ 24

ISMAILOVA Ra'no Shuhrat qizi

AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YUKLARNI XALQARO TASHISH SHARTNOMASI

BO'YICHA YUKNI BELGILANGAN VAQTDА YETKAZIB BERISH MAJBURIYATLARINI

BAJARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 36

SALIMOVA Diyoraxon Baxtiyorjon qizi

HAVO TRANSPORTI TASHUVCHISINING YO'LOVCHI VA BAGAJ TASHISHDAGI

JAVOBGARLIGI MANBALARI 44

ЮЛДАШОВ Абдумумин Абдугопирович

РАҚАМЛИ МУҲИТДА МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИ ВА ТУРДОШ ҲУҚУҚЛАР

ҲИМОЯСИДА МУЛКИЙ ҲУҚУҚЛАРНИ ЖАМОАВИЙ АСОДА БОШҚАРИШ

ИНСТИТУТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ 52

СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ. ҲУҚУҚНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

ШАДИЕВА Сайёра Арифовна

О НЕКОТОРЫХ ВОПРОСАХ ПЕРЕСМОТРА СУДЕБНЫХ АКТОВ В ПОРЯДКЕ

РЕВИЗИИ 59

ЭРГАШЕВ Қахрамон Зокирович

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА ЖИНОЯТ ҚИДИРУВ БЎЛИНМАЛАРНИНГ

КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШГА ОИД

ВАЗИФАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ 68

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

НОРМАНОВ Охунжон Эшназар ўғли

БОЛАЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИНГ САБАБ ВА
ШАРОИТЛАРИ ҲАМДА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРАЛАРИ77

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

ЮЛДАШЕВА Говхержан

ВОДНАЯ ДИПЛОМАТИЯ И МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО
ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В СФЕРЕ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ93

ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна

СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ НОРМ ПРАВА НА ЗДОРОВЬЕ 101

РАШИДОВА Нодира Ильхамовна

ЛЕГАЛИЗАЦИЯ (ОТМЫВАНИЕ) ДОХОДОВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРЕСТУПНЫМ ПУТЕМ
В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ 110

ЕСЕМУРАТОВ Алишер Избасарович

МИГРАНТЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР
ТАЖРИБАСИ 117

АЗИМОВ Саидбек Ибрагимович

ПОНЯТИЕ ИНСТИТУТА ОМБУДСМЕНОВ В СОВРЕМЕННЫХ ПРАВОВЫХ
ПРОСТРАНСТВИЯХ 124

АБДУРАШИДОВА Зарина Турғун қизи

ФУҚАРОЛИГИ БЎЛМАГАН ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ
АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ 132

QANRAMONOVA Aziza Ulug'bek qizi

BO'LALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASHNING XALQARO-HUQUQIY
ASOSLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI 139

BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

QAHRAMONOVA Aziza Ulug‘bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

E-mail: azizakhon8800@mail.ru

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): QAHRAMONOVA A.U. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarining vujudga kelishi va rivojlanishi // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2025) B. 139–146

 2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-16>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif tomonidan bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi, uning turlari, qachondan boshlab bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha say-harakatlar boshlanganligi haqida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni cheklash yuzasidan qabul qilingan xalqaro-huquqiy aktlar xronologik tartibda tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalar nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashishga o‘z hissasini qo‘shgan olimlar, faollarning nazariyalari tadqiq qilinadi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasida bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning mexanizmlariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, zo‘ravonlikning turlari, bola huquqlari, xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalar, Millatlar Ligasi, BMT.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРАВОВЫХ ОСНОВ БОРЬБЫ С НАСИЛИЕМ В ОТНОШЕНИИ ДЕТЕЙ

КАХРАМОНОВА Азиза Улугбек кизи

Базовый докторант

Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: azizakhon8800@mail.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор рассматривает понятие насилия над детьми, его видах, с каких пор началась работа по защите прав и свобод детей. Кроме того, в хронологическом порядке анализируются принятые международно-правовые акты по ограничению насилия в отношении детей. Также исследованы теории ученых и активистов, внесших вклад в борьбу с насилием над детьми. Кроме того, обсуждены механизмы защиты детей от насилия в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: насилие, виды насилия, права детей, международные и региональные декларации, Лига Наций, ООН.

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORKS FOR COMBATING VIOLENCE AGAINST CHILDREN

КАКХРАМОНОВА Aziza Ulugbek kizi

PhD researcher at Tashkent State University of Law

E-mail: azizakhon8800@mail.ru

ANNOTATION

In this article, the author talks about the concept of violence against children, its types, and when work began to protect the rights and freedoms of children. In addition, the adopted international legal acts on limiting violence against children are analyzed in chronological order. The theories of scientists and activists who have contributed to the fight against violence against children will also be examined. In addition, mechanisms for protecting children from violence in the Republic of Uzbekistan will be discussed.

Keywords: violence, types of violence, children's rights, international and regional declarations, Eglantine Jebb, League of Nations, UN.

Bolalar va ularning huquq-erkinliklarining himoyasi har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim. Zero, bolalar jamiyatning zaif va e'tiborga muhtoj qatlami hisoblanishi barchamizga ma'lumdir hamda har bir davlatning kelajagi undagi yosh avlodning ruhan va jismonan sog'lom bo'lishi, sifat ta'lim olishi, yaxshi oilaviy muhitda o'sishiga uzviy bog'liqdir. Shu sababdan, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish jamiyatning ustuvor vazifalaridan biridir, chunki bolalikdagi zo'ravonlik jiddiy jismoniy, psixologik va ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik mavzusi hozirgi tahlikali zamonda ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Hozirgi zamonda har beshta boladan bittasi nizoli mojarolar bo'layotgan hududlarda yashashi qayd etilgan. Butun dunyo bo'ylab mojaroli zonalarida, jumladan Afg'oniston, Burkina-Faso, Kongo Demokratik Respublikasi, Gaiti, Yaman, Mali, Myanma, Niger, Suriya Arab Respublikasi, Somali, Sudan va Ukrainada yarim milliardga yaqin bola yashaydi, bu ko'rsatkich 1990-yilga nisbatan ikki baravar ko'p [1].

Bundan tashqari, yosh avlodning sog'lom va xavfsiz sharoitda o'sishi kerakligi takroran ta'kidlanayotganligiga qaramasdan doimiy ravishda oila ichida zo'ravonlik, ruhiy qaramlik, jinsiy zo'ravonliklar kuzatilayotganligi achinarli holatdir. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, zo'ravonlik har yili o'rtacha 130 000ga yaqin bolalar va o'smirlarning hayotiga zomin bo'lmoqda [2].

Ilmiy maqolaning maqsadi bola huquqlarining himoyasi va ularni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan xalqaro-huquqiy mexanizmlarining vujudga kelishi va rivojlanishini xronologik jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Maqolada bolalarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat bolalarning huquq va erkinliklarining buzilishi, balki, butun jamiyat e'tibor qaratishi lozim bo'lgan global muammo sifatida o'rganiladi.

Mazkur tadqiqot ishining natijalari bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarini davriylashtirilgan holda 3 ta bosqichga ajratib o'rganishga qaratilgan. Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishning xalqaro-huquqiy mexanizmlariga to'xtalar ekanmiz, avvalambor, bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va uning turlarini ham qisqacha yoritib o'tsak maqsadga muvofiqdir. 1989-yilda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaning 19-moddasida zo'ravonlik tushunchasi shunday

yoritilgan: jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikning barcha shakllari, shikastlanish va haqorat qilish, beparvolik yoki beparvo munosabatda bo‘lish, qo‘pol munosabatda bo‘lish yoki ekspluatatsiya, shu jumladan jinsiy tazyiq [3].

Milliy qonunchiligimizda esa ushbu tushunchaga yanada to‘liqroq ta’rif berilgan. “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2024-yil 14-noyabrdagi 996-sonli qonunning 3-moddasiga ko‘ra “Bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha’niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi” [4].

Demak, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini quyidagi 3 ta asosiy bosqichga ajratsak bo‘ladi:

I. XX asrgacha bo‘lgan davr. Bilamizki, XX asrgacha bo‘lgan davrda bolalarning huquq va erkinliklarining himoyasini taminlash bo‘yicha xalqaro asoslar hali shakllanmagan. Ammo tarixga nazar soladigan bo‘lsak, o‘sha davrda adabiyot, falsafa fanlari rivojlangan va ko‘plab taniqli yozuvchilar hamda olimlar o‘zlarining asarlarida aynan bola huquqlari, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalariga to‘xtalib o‘tishgan. Misol uchun, XII asr oxiri XIII asrning birinchi yarmida hozirgi Jizzax viloyati hududida yashab o‘tgan huquqshunos olim Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniy “Bola huquqlari kodeksi” («Jomi’ ahkom as-sig‘or») nomli asarida birinchilardan bo‘lib bola huquqlari masalasiga to‘xtalgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 27-iyunda ikkinchi Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosida ta’kidlaganlaridek, ushbu tarixiy asar bola huquqlari G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil muqaddam bugungi O‘zbekiston zaminida to‘liq o‘rganilib, amalga oshirilganini ko‘rsatadi [5].

Bundan tashqari, XIX asr boshlarida Angliyada yashab ijod qilgan yozuvchi Charlz Dikens o‘zining “Oliver Twist”, “Devid Kuperfild” nomli romanlari orqali Angliya aholisini bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, e’tiborsizlik va ekspluatatsiya haqida xabardorlikni oshirishga chaqirgan [6].

II. XX asrdan BMT tashkil etilgungacha bo‘lgan davr. Xalqaro huquqning rivojlanishi, inson huquq va erkinliklariga e’tibor kuchaya boshlashi bilan bola huquqlarini yoqlab chiquvchilar, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashuvchi nomoyondalar paydo bo‘la boshladi. Xususan, Shvetsiyalik o‘qituvchi, yozuvchi va tinchlik faoli Ellen Key bola huquqlari bo‘yicha kitob yozgan dastlabki yozuvchilardan hisoblanadi [7]. U o‘zining ma’ruzalari va risolalarida XX asr bolalar asri bo‘lishini bashorat qilgan va 1900-yilda nashr qilingan uning “Bolalar asri” nomli kitobida bolalarning asosiy huquqlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Bola huquqlarini himoya qilish, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan dastlabki xalqaro-huquqiy akt 1924-yilda qabul qilingan Jeneva deklaratsiyasi hisoblanadi. Britaniyalik huquqshunos va “Bolalarni asrang” xalqaro tashkilotining asoschi, Eglantayn Djebb bolalar huquqlari himoyasiga oid, nafaqat milliy qonunchilikning bir qismi bo‘lgan hujjat, balki kattalarning bolalarga nisbatan majburiyatlarini asoslovchi, xalqaro doiradagi hujjat ustida ishlagan. 1922-yil 30-oktyabrda Deklaratsiya haqidagi birinchi tushuncha “Bolalarni asrang” xalqaro tashkilotining bulletinida chiqarilgan va 1924-yil 26-noyabrda Jeneva shahrida Millatlar Ligasining beshinchi assambleyasida Jeneva Deklaratsiyasi qabul qilingan. Deklaratsiya quyidagi 5 ta asosiy tamoyilni belgib bergan: har bir bola jismoniy

va ma'naviy normal rivojlanishi uchun zarur vositalar bilan ta'minlanishi kerakligi; och qolgan bolani ovqatlantirish, kasal bolaga yordam ko'rsatilishi, adashgan bolani to'g'ri yo'lga boshlash, yetim va uysiz bolani boshpana bilan ta'minlash kerakligi; bola qiyinchilikka duch kelganda, birinchi navbatda, yordam olishi kerakligi; bola mehr-muhabbat muhitida o'sishi va har qanday ekspluatatsiyadan himoyalangan bo'lishi kerakligi va bolani uning eng yaxshi fazilatlari boshqa insonlar manfaati uchun xizmat qilishi kerakligi ongida tarbiyalanishi kerakligi tamoyillari. O'sha vaqtdagi Millatlar Ligasi bosh assambleyasi raisi, Shveytsarining sobiq prezidenti Djuzeppe Motta Jeneva Deklaratsiyasining qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, uni Millatlar Ligasining Bolalar Xartiyasi deb nomlagan [8]. Bundan ko'rinib turibdiki, bola huquqlari bo'yicha Jeneva Deklaratsiyasi bolalar va ularning huquqlari yuzasidan qabul qilingan hujjatlar ichida xalqaro darajada e'tirof etilgan dastlabki xalqaro shartnoma bo'lgan.

III. BMT tashkil etilgandan hozirgacha bo'lgan davr. Keyinchalik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilgandan keyin 1948-yilda Jeneva Deklaratsiyasi matni qayta ko'rib chiqildi va unga quyidagi ikkita band qo'shildi: bolalar irqi, millati yoki e'tiqodidan qat'iy nazar himoya qilinishi kerak (Ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar tomonidan bolalar ommaviy qirg'in qilinganligi va qiynoqlarga solinganligi tufayli diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyilining ahamiyati yanada oshganligi sababli ushbu band kiritib ketilgan) va bolalarga g'amxo'rlik butun oilaga nisbatan hurmat doirasida amalga oshirilishi kerak.

Xuddi shu yilda BMTning ijtimoiy himoya bo'yicha komissari A.J.Altmeyer dunyoda sog'liqni saqlash, bolalar himoyasi sohalarida o'zgarishlar bo'layotganligini inobatga olib Jeneva Deklaratsiyasida keltirilgan asosiy tamoyillarni saqlab qolgan holda yangi tashkilot, BMT doirasida boshqa bir bola huquqlari bo'yicha Deklaratsiya qabul qilishni taklif qilgan. Yangi Deklaratsiya loyihasi bir necha marotaba BMTning Inson huquqlari qo'mitasi tomonidan muhokomalarga qo'yilgan hamda a'zo davlatlar vakillarining talab va takliflari ko'rib chiqilib, 1959-yil 20-noyabrda Bosh Assambleyaning 1386 (XIV) rezolyutsiyasi bilan BMTning Bola huquqlari bo'yicha Deklaratsiyasi qabul qilingan. Deklaratsiya tuzilishi bo'yicha muqaddima va 10 ta tamoyildan iborat bo'lgan [9].

1976-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979-yilni "Xalqaro bolalar yili" bo'lishi e'lon qilinganligi uchun 1978-yilda Polsha ushbu yilni BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi bilan muxrlab qo'yishni tajlif qilib chiqqan. Ko'pgina davlatlar bu taklifni yoqlamadi. Chunki, Konvensiya Deklaratsiyadan farqli o'laroq majburiy-huquqiy xarajterga ega bo'lganligi sababli juda kam sonli davlatlarnigina qamrab olishi mumkinligi mutaxassislarni xavotirga solib qo'yg'an. BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan Konvensiya matni ustida ishlash uchun ochiq ishchi guruhni shakllantirilgan va ichki guruh tarkibiga Inson huquqlari bo'yicha Qo'mitaga a'zo bo'gan 43 ta davlatdan vakillar kiritilgan. Kuzatuvchilar sifatida esa ishchi guruh faoliyati bilan qiziqqan boshqa BMTga a'zo davlatlar, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar, shuningdek nodavlat-notijorat tashkilotlar ham kiritilgan. Ammo o'sha davrda BMTga a'zo 158 ta davlatdan faqatgina, Argentina, Braziliya, Markaziy Afrika Imperiyasi, Dominikana Respublikasi va Hindiston kabi davlatlarga ishki guruhda qatnashish uchun o'z delegatsiyalarini yuborishgan. 1988-yilda ochiq ishchi guruh Konvensiyaning qoralama nushasini birinchi o'qishda ko'rib chiqishni yakunladi va loyiha BMT Kotibiyati tomonidan texnik jihatdan ko'rib chiqilgandan keyin ishchi guruhda ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi. Ishchi guruning o'n yillik faoliyatidan keyin 1989-yil 20-noyabrda 54 ta moddadan iborat bo'gan BMTning bola huquqlari bo'yicha Konvensiyasi qabul qilingan. Xullas, Konvensiya qabul qilindi, matni

shakllantirildi, lekin ayrim holatlar yuzasidan bahs-munozalar davom etdi. Masalan, “bola” tushunchasi ta’rifi, yosh doirasi, ya’ni necha yoshgacha bola deb hisoblanishi va shu kabi holatlar. Chunki, ushbu xalqaro shartnoma keng qamrovli bo’lib ko’plab davlatlar a’zo bo’lgan va hamma davlat milliy qonunchiligi har xil shakllantirilgan. Ba’zi davlatlarga 18 yosh yosh voyaga yetish yoshi bo’lsa, ayrimlarida esa majburiy ta’lim 14 yoshgacha etib belgilanganligi va qizlar shu yoshdan qonunan nikohga kirishishlari mumkinligi vaj qilib keltirilgan. Shu sababli, barcha holatlarni inobatga olgan holda Konvensiyaning 1-moddasi quyidagicha qabul qilindi: ushbu Konvensiya maqsadlaridan kelib chiqib, bola deganda o’n sakkiz yoshga to’lmagan har bir inson tushuniladi, agar bolaga nisbatan qo’llaniladigan qonunchilikka ko’ra balog’atga yetishning erta vaqti ko’rsatilgan bo’lmasa. Konvensiya bolalar, ularning huquq va erkinliklari himoyasini to’liq qamrab olganligi, bola huquqlari masalasi dolzarbligi oshib borayotganligi sababli BMTning dunyoning eng ko’p davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan bitimi hisoblanadi. Konvensiyaning 19-moddasi a’zo davlatlarga bolalarni zo’ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning qonuniy, ma’muriy, ijtimoiy va tarbiyaviy barcha choralarini amlaga oshirish majburiyatini yuklaydi. 34-moddada esa bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi haqida so’z yuritiladi. BMT Bosh Assambleyasining 67-sessiyasida Bola huquqlari bo’yicha Qo’mitaning ma’ruzasida aynan Konvensiyaning 19-moddasi talqini masalasiga alohida to’xtalib o’tilgan hamda Qo’mita o’zining bola huquqlari bo’yicha pozitsiyasini quyidagicha bayon etgan: “bolalarning rivojlanishini xavf ostiga qo’yadigan bunday amaliyotlarga amalda chek qo’yish uchun zo’ravonlikni to’xtatish bo’yicha chora-tadbirlarni keskin faollashtirish va kengaytirish lozim” [10].

Ma’lumot o’znida aytish joizki, 1986-yilda ishchi guruh tarkibidagi Fransiya va Niderlandiya delegatsiyalari bolar fohishabozligini cheklovchi alohida modda kiritishni taklif qilishgan va 34-moddada shu taklif inobatga olingan. Bolalar jinsiy zo’ravonligi masalasi Konvensiyaning 19-moddasida ya’ni oilalardagi jinsiy zo’ravonlik nuqtai nazaridan keltirib o’tilgan. 34-moddaning asosiy g’oyasi esa bolalarni axloqiy, ruhiy, ma’naviy va jismoniy yaxlitligiga putur yetkazuvchi zo’ravonliklardan himoya qilishdir. 37-modda bolalarning jismoniy yaxlitligiga ziyon yetkazuvchi turli xil holatlarni, shu jumladan, qiynoqlar, g’ayriinsoniy va kamsituvchi munosabatlar yoki jazolarni cheklaydi [11]. Ammo Qo’mitaning so’nggi yillardagi hisobotlari jahon miqyosida nizolar va jiddiy mojarolar sonining ko’payishining bola huquqlariga ta’siri bilan ajralib turadi.

Shuning bilan, BMTning Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiyasi bolalarni zo’ravonlikdan himoya qilishning xalqaro-huquqiy mexanizmlaridan biri sanaladi.

Ushbu Konvensiyaning qabul qilinishi bilan bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish yo’lidagi xalqaro harakatlar to’xtab qolgani yo’q. 1989-yil noyabr oyida Kanada, Meksika, Pokiston, Shvetsiya, Misr kabi davlatlarning vakillari UNICEF xalqaro tashkilotiga bolalar himoyasi masalasi bo’yicha xalqaro uchrashuv tashkillashtirish tashabbusini bilan chiqishgan. Ushbu taklif inobatga olinib, 1990-yilning 29-30-sentyabr kunlari AQSHning Nyu York shahrida Jahon bolalar Sammiti o’tkazilgan. Ushbu sammitda ilk bor dunyo liderlari yagona maqsad, bolalar rivojlanishi va ulg’ayishlari yo’lida uchraydigan universal muammolarni hal qilish maqsadida yig’ilishgan va sammit natijasida 1990-yil 18-oktyabrda “Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishi to’g’risida”gi Deklaratsiya qabul qilingan [12]. Deklaratsiya tuzilish jihatidan kirish qismi va 36 ta moddadan iborat. Unda bolalarning sog’ligi, oziq-ovqat bilan ta’minlanganligi, ayollarning roli, onalarning salomatligi, oila qurishni rejalashtirish, oilaning ahamiyati, asosiy ta’lim, savodxonlik, qiyin sharoitdagi bolalar, qurolli to’qnashuvlar davrida bolalarning himoyasi, bolalar va atrof-muhit,

kambag'allikni bartaraf etish va iqtisodiy o'sishni jonlantirish kabi bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan masalalar keltirib o'tilgan.

Bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilishda nafaqat universal xalqaro hujjatlar, balki mintaqaviy shartnomalar va deklaratsiyalarning ham muhim ahamiyatga ega. Misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: 1942-yildagi VIII Pan-Amerika Bolalar Kongresi doirasida qabul qilingan Bolalar uchun imkoniyatlar Deklaratsiyasi, 1983-yilgi Arab davlatlari Ligasining Arab bolalarining huquqlari to'g'risidagi Xartiya, 1990-yilda qabul qilingan Afrika bolalarining huquqlari va farovonligi to'g'risidagi Xartiya, Bola huquqlari bo'yicha Yevropa Ittifoqi strategiyasi, 2007-yilda Yevropa Kengashi doirasida qabul qilingan "Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Konveniya. Shuningdek, Yevropa ijtimoiy Xartiyasi ham mavjud bo'lib, unda bolalar zo'rvonlikning turli shakllaridan himoya qilinishi lozimligi keltirib o'tilgan.

Pan Amerika Bolalar Kongresi Argentinlik feministlar tomonidan 1916-yilda tashkil etilgan harakat bo'lib, Lotin Amerikasidagi bolalar farovonligiga qaratilgan siyosat uchun muhim mexanizm vazifasini bajargan. Bundan tashqari, Ushbu tadbirlarning eng mashhuri Amerika davlatlari tashkiloti homiyligida o'tkaziladigan Panamerika bolalar forumi ham bolalar va yoshlarda vujudga keladigan muammolarni muhokama qilish va siyosatchilarga yechim taklif qilishda o'zining faol o'rniga ega.

1983-yilda qabul qilingan Arab bolalarining huquqlari to'g'risidagi Xartiya o'z nomi bilan ko'rsatib turganday arab bolalarining asosiy huquqlarini, shu jumladan oilada tarbiyalanish huquqini, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot olish huquqlarini belgilaydi. Xartiya arab dunyosi hukumatlari uchun bolalar huquqlari hurmat qilinishi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan siyosat va choralarni amalga oshirish uchun asos yaratadi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1989-yildagi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi kabi xalqaro shartnomalarni to'ldiradi, shu bilan birgalikda arab dunyosining noyob madaniy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarini qamrab oladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, ushbu Xartiya Arab davlatlar Ligasi sammiti darajasida qabul qilinmagan hamda a'zo davlatlardan takliflar va hisobotlarni qabul qilib oluvchi maxsus mustaqil shartnomaviy tuzilmasi mavjud emas [13].

Navbatdagi mintaqaviy mexanizmga to'xtaladigan bo'lsak, Afrika bolalarining huquqlari va farovonligi to'g'risidagi Xartiya Afrika Birligi tashkiloti tomonidan 1990-yil 11-iyulda qabul qilingan va 1999-yil 29-noyabrda kuchga kirgan. Hozirgacha Afrika Birligi tashkilotida a'zo Marokash, Sahroi Arab Demokratik Respublikasi, Somali, Janubiy Sudan va Tunis kabi davlatlardan tashqari qolgan 50 ta a'zo davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Xartiyadan bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilinishi kerakligi moddalarda to'liq belgilab berilgan. Xususan, 16-moddada bolalarni zo'rvonlik va qiynoqlardan himoya qilish; 21-moddada bolalarni zararli ijtimoiy va madaniy amaliyotlardan (Afrika mintaqasiga xos bo'lgan odatlar) himoya qilish; 22-moddada qurolli to'qnashuvlar davrida bolalarni himoya qilish; 23-moddada qochoq maqomiga ega bolalarni himoya qilish; 26-moddada bolalarni aparteid va diskriminatsiyadan himoya qilish; 27-moddada jinsiy zo'rvonlikni cheklash; 29-moddada bolalarni sotish, sotib olish yoki o'g'irlashni cheklash kabi bola huquqlarini kamsituvchi holatlarni cheklashga qaratilgan normalar keltirib o'tilgan [14].

Yevropa Kengashi doirasida 2007-yilda qabul qilingan "Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Konveniya ham bolalarga nisbatan sodir etiladigan zo'rvonliklarga qarshi kurashuvchi mintaqaviy xalqaro-huquqiy mexanizmlardan biri sanaladi. Ispaniyaning Lanzarot shahrida imzolanganligi sababli "Lanzarot konvensiyasi"

sifatida tanilgan bu Konvensiya bolalar nisbatan jinsiy zo'rvonlikning turli shakllarini jinoiy huquqbuzarlik sifatida belgilovchi birinchi xalqaro huquqiy-hujjat sanaladi. Konvensiya a'zo davlatlardan ushbu huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish uchun tegishli qonun hujjatlari va choralarni qabul qilishini talab qiladi. 2010-yil 1-iyulda kuchga kirgan ushbu Konvensiya Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu Konvensiya jinsiy ekspluatatsiya va zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha aniq standartlarni belgilaydi, a'zo davlatlarga bolalarni turli xil zo'rvonliklardan himoya qilishga qaratilgan qonunlari va ichki siyosatlarini isloh qilishga ko'maklashadi.

Yevropa Ijtimoiy Xartiyasi Yevropa Kengashi shartnomasi bo'lib, fuqarolik va siyosiy huquqlarni nazarda tutuvchi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyasiga o'xshash asosiy ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarni kafolatlaydigan xalqaro mintaqaviy hujjat hisoblanadi. U bandlik, uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya va farovonlik bilan bog'liq inson huquqlarining keng doirasini kafolatlaydi. Xartiyada keksalar, bolalar, nogironlar va migrantlar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. 1961-yilda qabul qilingan ushbu Xartiyaga nisbatan 1988, 1991 va 1995-yillarda 3 ta qo'shimcha protokol qabul qilingan. 1996-yilda qabul qilingan Xartiyaning o'zgartirish kiritilgan variatida yana kengroq doirada huquq va erkinliklarga to'xtalib o'tilgan. Xususan, 7-moddasida voyaga yetmagan shaxslarning va bolalar mehnatining tartibga solinishi, bolalar va yoshlar duchor bo'ladigan jismoniy va ma'naviy xavflardan, xususan, ularning mehnati natijasida bevosita yoki bilvosita yuzaga keladigan xavflardan alohida himoya qilinishi; 17-moddasida esa bolalarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarining himoya qilinishi, ularni zo'rvonlik yoki ekspluatatsiyadan himoya qilishi ko'rsatib o'tilgan [15].

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bola huquqlari va ularning zo'rvonlikdan himoya qilish masalasi yangi ko'tarilgan muammolardan hisoblanmaydi, aksincha bu mavzuning dolzarbligi ancha yillar oldinga borib taqaladi va doimo ribojlanib bormoqda. Shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy asoslarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bevosita Millarlar Ligasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotlarining tuzilishi va faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Dunyo davlatlarining manfaat va qiziqishlarini birlashtirib turuvchi bunday xalqaro tashkilotlar tuzilgandan keyin bolalarning himoyasi masalani qonuniy va tashkiliy tus ola boshlagan. Shuningdek, bolalarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurashning xalqaro-huquqiy asoslarining vujudga kelishini 3 ta davrga ajratib o'rganishimiz mumkin: XX asrgacha bo'lgan davr, XX asrdan BMT tashkil etilgungacha bo'lgan davr hamda BMT tashkil etilgandan hozirgacha bo'lgan davr.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Доклад Комитета по правам ребенка. Нью-Йорк, 2024. С.27
2. <https://www.unicef.org/press-releases/fast-facts-violence-against-children-widespread-affecting-millions-globally>
3. Eliminating violence against children, Handbook for parliamentarians №13-2007, UNICEF, 84 p, 8-9-pages.
4. O'zbekiston Respublikasi Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risidagi Qonuni. O'RQ-14.11.2024-yildagi 996-son // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7219502>

5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ikkinchi Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosida so'zlagan nutqi // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7352>
6. Charles Dickens and the Breakdown of the Society's Institutions for Children. David Major, Kentucky University.1986.
7. Philip E.Veerman. The Rights of the Child and the Changing Image of Childhood. Kluwer Academic Publishers, The Netherlands, 1992, 655 p (75-page)
8. Philip E.Veerman. The Rights of the Child and the Changing Image of Childhood. Kluwer Academic Publishers, The Netherlands, 1992, 655 p (162-page)
9. UN General Assembly. Declaration of The Rights of The Child. 14th sess: 1959. // URL: <https://digitallibrary.un.org/record/195831>
10. Доклад Комитета по правам ребенка. Нью-Йорк, 2012. С.25-30
11. <http://ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>
12. Plan of Action for implementing the Wolrd Declaration on the Survival, Protection and Development of Children in the 1990s.
13. Mervat Rishmawi. Children's rights in the Arab Charter on Human Rights An introduction to selected issues. THEMENSCHWERPUNKT: The Child in International Law (2020), pp. 209-222, p 211 // URL: <https://www.jstor.org/stable/48636465>
14. African Charter on The Rights anf Welfare of The Child. Adopted by the 26th Ordinary Session of the Assembly of Heads of State and Government of The OAU. Addis Ababa, Ethiopia – July 1990, Entered into force on 29 November, 1999. // URL: https://au.int/sites/default/files/treaties/36804-treaty-african_charter_on_rights_welfare_of_the_child.pdf
15. Olivier DE SCHUTTER. The European Social Charter in the context of implementation of the EU Charter of Fundamental Rights, 2016, p 74, 50-56 pages.

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

2 СОН, 4 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 3, ВЫПУСК 2

LAWYER HERALD

VOLUME 4, ISSUE 2

ISSN 2181-9416

DOI JOURNAL: 10.26739/ 2181-9416